| Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish .....                                                             | 462 |
| <b>Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo</b>                                                                                                        |     |
| Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda so'nggi yillardagi oshib borayotgan ahamiyati .....                                         | 467 |
| <b>Bahodirova Mohigul</b>                                                                                                                                 |     |
| Conceptual framework for boosting the financial and economic performance of investment projects in industrial enterprises.....                            | 472 |
| <b>Sarriev Kahraman Ramatullaevich</b>                                                                                                                    |     |
| Bandlik va ayollar tadbirkorligi .....                                                                                                                    | 477 |
| <b>Ibodullayeva M.S.</b>                                                                                                                                  |     |



|                                                                                                                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ekonometrik prognozlash .....                                                                                                                                                               | 482 |
| <b>A'zamov Musurmon Axmadovich, Islomov Javohir</b>                                                                                                                                                                              |     |
| Eksport siyosatini tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'siri .....                                                                                                                                                           | 488 |
| <b>Suvonov Ibrohim Izbosarovich, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>                                                                                                                                                        |     |
| Aholini ish bilan ta'minlashda qishloq aholisini mehnat salohiyatidan foydalanish.....                                                                                                                                           | 492 |
| <b>Noiba Qodirova Maxmud qizi</b>                                                                                                                                                                                                |     |
| Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda rasmiy bandlik va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish .....                                                                                                                             | 497 |
| <b>Xalimbetov Farxad Bagibekovich, Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>                                                                                                                                                     |     |
| Analysis of touristic potential and capacity of ecotourism sites .....                                                                                                                                                           | 501 |
| <b>Abdurakhmanova Akida Faizulla kizi</b>                                                                                                                                                                                        |     |
| Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish.....                                                                                                                                        | 509 |
| <b>Salohiddinov Jaloliddin</b>                                                                                                                                                                                                   |     |
| Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi .....                                                                                                                                                     | 516 |
| <b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich</b>                                                                                                                                                                                              |     |
| O'zbekiston va xorijiy davlatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar orqali kapital yig'ish strategiyalari .....                                                                                                   | 520 |
| <b>Dilnozaxon Muxitdinova</b>                                                                                                                                                                                                    |     |
| Iqtisodiy inqiroz paytida korxonalarda likvidlilikni boshqarish strategiyalari .....                                                                                                                                             | 527 |
| <b>Abdusalomova Nodira Bakhodirovna, Jabborova Sevinch Xusanovna</b>                                                                                                                                                             |     |
| O'zbekistonda islomiy mikromoliyaviy xizmatlar orqali ish bilan bandlikni oshirish istiqbollari.....                                                                                                                             | 532 |
| <b>Mamatkulov Humoyun Bobir-ugli</b>                                                                                                                                                                                             |     |
| Textile enterprises and changing market conditions: integration of demand analysis, trend forecasting and strategic assortment management .....                                                                                  | 536 |
| <b>Ikramova Nodira Burkhon kizi</b>                                                                                                                                                                                              |     |
| Aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish .....                                                                                                                                       | 540 |
| <b>Umarchodjaeva Muyassarhon Ganievna, Omanova Nargiza Rustam qizi</b>                                                                                                                                                           |     |
| Moliyaviy faoliyat natijalari hisobi va auditini takomillashtirish.....                                                                                                                                                          | 548 |
| <b>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li</b>                                                                                                                                                        |     |
| Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektori korxonalariga kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishda markaziy banklarning qayta moliyalash stavkalarining rolini tahlil qilish ..... | 553 |
| <b>Jabbarov Eliboy, Abdullayeva Charos Abdullo qizi</b>                                                                                                                                                                          |     |
| O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsiyalarning roli va iqtisodiy samaradorligi .....                                                                                                           | 558 |
| <b>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li</b>                                                                                                                                                   |     |
| Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish orqali chiqindilarni boshqarish muammosini bartaraf etish yo'llari .....                                                                                                                  | 563 |
| <b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li, Hamrokulov Ulug'bek Abdurahmatovich</b>                                                                                                                                                   |     |
| Korxonani samarali boshqarishni ta'minlash strategiyalari .....                                                                                                                                                                  | 567 |
| <b>D.Mutalova</b>                                                                                                                                                                                                                |     |
| Masofaviy ta'lim platformalarining qiyosiy tahlili va funksional xususiyatlari.....                                                                                                                                              | 571 |
| <b>Nabieva Nilufar Nabi qizi</b>                                                                                                                                                                                                 |     |
| Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga ta'siri.....                                                                                                                                                                            | 577 |
| <b>Aripova Ziyoda Xayrullayevna, Nurmuxamedova Tursunoy Usmonovna</b>                                                                                                                                                            |     |
| Transportda turistik xizmatlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish.....                                                                                                                                                   | 581 |
| <b>Tuychiyev Anvarjon Muxtorjonovich</b>                                                                                                                                                                                         |     |
| Ipak yo'lining tarixiy madaniy merosi va hunarmandchiligi: dolzarb muammolar va tadqiqot istiqbollari .....                                                                                                                      | 584 |
| <b>Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna</b>                                                                                                                                                                                        |     |



|                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Eksport faoliyatini rag'batlantirishda institutsional va moliyaviy mexanizmlarning roli..... | 589 |
| <b>Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich</b>                                                   |     |
| Elektron pul evolyutsiyasi.....                                                              | 595 |
| <b>Marpatov Mavlonxon Dadashevich</b>                                                        |     |
| Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida sanoat korxonalarining roli .....                     | 600 |
| <b>Nasullayeva Yoqutoy Nasim qizi</b>                                                        |     |
| O'zbekistonda turizm marketingi va raqobatbardoshligini oshirish .....                       | 606 |
| <b>Ikramova Nasiba Axmadovna</b>                                                             |     |
| Kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy yo'nalishlari.....                                 | 610 |
| <b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li</b>                    |     |



# KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI



**Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich**

i.f.d., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrası mudiri, professor.



**Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,  
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kambag'allikni qisqartirish jarayonida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning roli va ularni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Muallif kambag'allikning iqtisodiy, ijtimoiy, institutsion omillar bilan uzviy bog'liqligini asoslagan holda, xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qiladi. Tadqiqotda iqtisodiy o'sishning kambag'allikni kamaytirishga ta'siri va iqtisodiy institutlarning ahamiyati, hamda O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy vositalar chuqur o'rganilgan. Ekonometrik modellash orqali mehnat resurslari va aholi daromadlari kabi omillarning kambag'allikka ta'siri statistik tahlil asosda aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Kambag'allik, qashshoqlik, iqtisodiy mexanizm, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik, iqtisodiy siyosat, institutsional islohot.

**Abstract:** The article examines the role of organizational and economic mechanisms in the process of poverty reduction and modern approaches to their development. The author analyzes international and national experience, based on the inextricable link between poverty and economic, social and institutional factors. The study deeply examines the impact of economic growth on poverty reduction and the importance of economic institutions, as well as organizational and economic instruments that can be used in the context of Uzbekistan. Using econometric modeling based on statistical analysis, the influence of such factors as labor resources and population income on poverty is determined.

**Key words:** Poverty, destitution, economic mechanism, organizational mechanism, economic growth, entrepreneurship, economic policy, institutional reform.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль организационно-экономических механизмов в процессе сокращения бедности и современные подходы к их развитию. Автор анализирует международный и национальный опыт, исходя из неразрывной связи бедности с экономическими, социальными и институциональными факторами. В исследовании глубоко изучается влияние экономического роста на сокращение бедности и значение экономических институтов, а также организационно-экономических инструментов, которые могут быть использованы в условиях Узбекистана. С помощью эконометрического моделирования на основе статистического анализа определяется влияние таких факторов, как трудовые ресурсы и доходы населения, на бедность.

**Ключевые слова:** Бедность, нищета, экономический механизм, организационный механизм, экономический рост, предпринимательство, экономическая политика, институциональная реформа.



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida keyingi taraqqiyot aholini ijtimoiy farovonligini oshirishga qaratilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi tahrirdagi o'zgarishlar asosida mamlakatimizni ijtimoiy davlat sifatida asosiy qomusimizda e'tirof etilishi kambag'allikni qisqartirishga alohida ustuvorlik berishni talab etadi. Bugungi kunda respublikamizda kambag'allik darajasi 2024-yildagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda kambag'allik darajasi 8,9 foizga tushdi<sup>1</sup>. Ma'lumotlarga ko'ra, kambag'allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga tushdi (3,3 mln kishi yoki 2023-yilga nisbatan 719 ming kishiga kamaygan). Bu miqdor Jahon Banki bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlangani ta'kidlanmoqda.

Kambag'allik darajasida eng yuqori pasayishlar:

- Buxoro viloyatida - 11,8 foizdan 8,7 foizgacha;
- Samarqand viloyatida - 10,5 foizdan 7,5 foizgacha;
- Namangan viloyatida - 10,4 foizdan 7,6 foizgacha;
- Qoraqalpog'iston Respublikasida - 13,6 foizdan 10,8 foizgacha qayd etildi.

2024-yilda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, tomorqa va dehqonchilik uchun ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilgan choralar mamlakatda kambag'allik darajasini pasaytirishga katta hissa qo'shdi. Buning natijasida 2024-yilda aholining real daromadi 10,7 foizga o'sib, jon boshiga oyiga o'rtacha 2,1 mln so'mdan to'g'ri keldi (yil boshida – 1,7 mln so'm)<sup>2</sup>.

Kambag'allikni qisqartirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkoniyatini yaratib, aholini daromadini oshiradi hamda mamlakat ijtimoiy ahvolini yaxshilash imkoniyatini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[1]gi Qarorida nson resurslarini rivojlantirish, mehnat bozorini isloh qilish, bandlikning zamonaviy shakllarini tatbiq etish orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha sohada ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish, xalqaro andozalar asosida munosib mehnat munosabatlarini keng joriy qilish maqsadlari belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Mavzuga oid ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning adabiyotlari tahlil qilindi. Xususan Y.Bastiansen, T.Herd va B.Exelle "Poverty reduction as a local institutional process"[2] nomli maqolasida "Qashshoqlik bu ma'lum bir guruh odamlarga xos xususiyat emas; u, aksincha, ma'lum bir vaqtning o'zida odamlar o'zlarini topishlari mumkin bo'lgan muayyan vaziyatni tavsiflaydi.", deb ta'riflagan. Olimlar qashshoqlikning individual belgilari va institutsional determinantlarini farqlab berishgan.

Olimlar Nikaragua va Kamerunda to'plangan tajribalar asosida batafsilroq o'rgangan. Ushbu ikkita holat tashqi dasturlarning mahalliy institutsional kontekst bilan o'zaro ta'sirini o'rganish imkoniyatini taqdim etgani uchun tanlangan. Bular rivojlanish aralashuvlarining mahalliy institutsional singdirilishiga xos bo'lgan murakkablik va paradokslar bilan bog'liq bizning argumentimizning yorqin misollari. Shuningdek, ular tashqi tomondan noto'g'ri institutsional o'zgarishlarni rag'batlantirish imkoniyatlari va cheklavlari haqidagi tushunchamizning siyosat oqibatlarini haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi.

Neeta Baporikar "Cooperative Model as Organizational Mechanism for Poverty Reduction and Economic Development"[3] nomli maqolasida qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning diqqat markazida bo'lganligi sababli Namibiya mamlakati o'rganilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligi kooperativ modelining elementlarini qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishning tashkiliy mexanizmi sifatida aniqlash va tahlil qilish edi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kooperativlar hali ham ko'plab muammolarga duch kelmoqdalar va tavsiyalar orasida hukumat va boshqa manfaatdor tomonlarning kapital bilan ta'minlash, o'qitish va yer sotib olish uchun qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kiradi.

Olimlar kambag'allikni qisqartirish maqsadida qishloq xo'jaligida ish o'rinlarini yaratishni tavsiya qilishgan hamda kambag'allikni qisqartirishning faqat iqtisodiy tomonlarini emas, balki huquqiy bazassini yaratish va rag'batlantirishlarni ham amalga oshirishni xulosa qilishgan.

Robert Boyer "Growth strategies and poverty reduction: the institutional complementarity hypothesis"[4] nomli maqolada, asosan, qashshoqlikka qarshi strategiyalarni iqtisodiy o'sishdan mustaqil deb hisoblaydigan va asosan bozor mexanizmlariga tayanadigan siyosatlarning chegaralaridan boshlanadi. Bunga qarshi ravishda, yangi institutsional iqtisodiyotning bir yo'nalishi shuni ta'kidlaydiki, haqiqiy iqtisodiyotlar to'liq koordinatsiya qiluvchi mexanizmlar to'plamiga tayanadi va bu mexanizmlar bir-birini almashtiruvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega deb tushuntirgan.

1 <https://kun.uz/kr/news/2025/02/03/2024-yilda-ozbekistonda-kambag'allik-darajasi-89-foizga-tushdi>

2 <https://kun.uz/kr/news/2025/02/03/2024-yilda-ozbekistonda-kambag'allik-darajasi-89-foizga-tushdi>



Maqolannig asosiy jihat shundaki, qashshoqlikka qarshi siyosatlar samarali bo'ladi, agar ular o'sish va qashshoqlikni kamaytirish dasturlari o'rtasida o'zaro mustahkamlovchi «fazilatli doiralarni»ni shakllantirsa, ya'ni, iqtisodiy o'sish ushbu dasturlarga asos bo'lsa, o'z navbatida, bu dasturlar ham o'sishning tezligi va barqarorligini ta'minlaydi.

A.Karnani "Marketing and poverty alleviation: The perspective of the poor"[5] nomli maqolasiga ko'ra, qashshoqlikni qisqartirishning eng yaxshi yo'li kambag'allarning ishlab chiqarish qobiliyatini oshirishdir. Samarali marketing tizimlari kambag'allarning ishlab chiqarishni ko'paytirishda muhim ahamiyatga ega, chunki ular mahsulotlarni raqobatbardosh narxlarda bozorga yetkazish imkonini beradi va bu esa daromadlarning oshishiga olib keladi. Aynan shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlar eksport bozorlarini kengaytirish yo'llarini o'rganishi zarur. Keniyada paxta, sholi, choy, qahva va kaju yong'og'i fermerlarining ahvoli marketing tizimlarini yaxshilashning muhimligini ko'rsatadi. Ushbu tovarlarni sotishda zaiflik va samarasizlik fermerlarning qashshoqlashuviga olib keldi, ular hosil nobud bo'lishi, tovar narxlarining pastligi va shuning uchun kam foyda va daromad olish, hamda vositachilar tomonidan ekspluatatsiya qilinish kabi muammolarga duch kelmoqdalar. Marketing tizimini yaxshilash orqali ushbu tovarlar ishlab chiqaruvchilari narx tebranishlaridan himoya qiladigan yaxshiroq saqlash, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradigan resurslarni birlashtirish va qo'shilgan qiymat yaratish hamda daromadni yaxshilash uchun mahsulotlarni qayta ishlash kabi imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin. Ushbu choralarni amalga oshirish mahalliy, mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rag'batlantirishi; mustahkam agro-sanoat sektorini barpo etishning asosini yaratishi; ish joylari ochishi; ishlab chiqarish va daromadlarni oshirishi; va qashshoqlikni adolatli va barqaror qisqartirishga hissa qo'shishi mumkin[5].

Mahalliy olimlarimizga ko'ra, Z.Ramazanov "Kambag'allikni qisqartirishga ta'sir qiluvchi tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish"[6] nomli maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanish uchun kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish tushuntirildi, kambag'allikni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi hamda Respublika Prezidenti tomonidan aniq belgilab berilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda iqtisodchilar ushbu konsepsiyani asoslab berishga harakat qilmoqdalar. mehnatga layoqatli aholining munosib mehnat asosida qashshoqlikdan mustaqil ravishda chiqib ketishi uchun qator chora-tadbirlar va shart-sharoitlarni aniqlashtirib o'tildi.

S.Akbarova "Kambag'allikni qisqartirishning nazariy asoslari"[7] nomli maqolasida kambag'allikni qisqartirish tadqiqotida ekonometrik modellarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari sifatida omillarning ko'pligi: aholining qarishi va migratsiya o'zgarishlarining bugungi sharoitida yoshlar, ayollar, keksa ishchilar, shuningdek, past malakali ishchilar va ularga mos kuzatuvlar soni: yillik statistik ma'lumotlar, miqdor ko'rsatkichlardan tashqari sifat ko'rsatkichlarining mavjudligi: ishlab chiqilgan dastur hamda farmonlarning ta'sirini keltirish mumkin. Bu esa o'z navbatida kambag'allikni qisqartirish tadqiqotida ekonometrik modellarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarga egaligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birgalikda "Kambag'allikni qisqartirishga ta'sir qiluvchi tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish" nomli maqolamizda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanish uchun kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish tushuntirildi, kambag'allikni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi hamda Respublika Prezidenti tomonidan aniq belgilab berilgan chora tadbirlarni hisobga olgan holda iqtisodchilar ushbu konsepsiyani asoslab berishga harakat qilmoqdalar. mehnatga layoqatli aholining munosib mehnat asosida qashshoqlikdan mustaqil ravishda chiqib ketishi uchun qator chora-tadbirlar va shart sharoitlarni aniqlashtirib o'tilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot ishida bir qator ilmiy tadqiqot uslublaridan jumladan, tizimli tahlil, dinamik qatorlar hamda ekonometrik usullardan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikni qisqartirish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan respublikadagi ijtimoiy iqtisodiy holatni adolatli ifodalash bo'yicha aniq ko'rsatmalar berib va bunda respublikamizda "Kambag'allik darajasi", "Kambag'allikni qisqartirish" kabi faoliyat turlarini alohida tizim sifatida urganish zarurligini ta'kidlagan va bu yo'nalish bo'yicha alohida vazirlik tashkil etish va tizimli faoliyat olib borish bo'yicha ko'rsatmalarni bergan.

Bu jarayonda tashkiliy mexanizmlar davlat va mahalliy hokimiyat organlarining koordinatsiyalashgan faoliyatini, ijtimoiy xizmatlar tizimini tashkil etishni, kambag'al oilalar ro'yxatini yuritish va monitoring qilish tizimini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy mexanizmlar esa to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam ko'rsatish, subsidiyalar berish, ish o'rinlarini yaratish dasturlari, mikrokreditlash va kasbiy ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ikki yo'nalishning samarali birgalikdagi qo'llanilishi kambag'allikni barqaror kamaytirish va aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradi.




Kambag'allikni qisqartirish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tashkiliy mexanizmlar davlat va mahalliy hokimiyat organlarining koordinatsiyalashgan faoliyatini, ijtimoiy xizmatlar tizimini tashkil etishni, kambag'al oilalar ro'yxatini yuritish va monitoring qilish tizimini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy mexanizmlar esa to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam ko'rsatish, subsidiyalarni berish, ish o'rinlarini yaratish dasturlari, mikrokreditlash va kasbiy ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ikki yo'nalishning samarali birgalikdagi qo'llanilishi kambag'allikni barqaror kamaytirish va aholi turmush darajasini o'shishga yordam beradi.

Bu mexanizmlar bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida qo'llanilganda kambag'allikka qarshi chora-tadbirlar samaradorligi ortadi. Chunki kambag'allik ko'p qirrali muammo bo'lib, bitta mexanizm bilan hal qilib bo'lmaydi; bu esa keng ko'lamli kompleks yondashuvni talab qiladi.

Kambag'allikni qisqartirish bu ko'p jihatdan ish kuchiga talab va taklifning o'zgarish prinsiplari asosida shakllanadi. Buning natijasida mehnatni tatbiq qilish sohasi va imkoniyatlari kengaytirilib, o'zini - o'zi ish bilan ta'minlash ko'lamlari oshiriladi. Mehnat faoliyatining shakllari va turlari xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'lib, mulkchilik va tarmoq shakllari bo'yicha ishlovchilar tarkibi o'zgaradi, yangi, aholi uchun yanada qulay bandlik shakllari paydo bo'ladi, uning ilgari norasmiy faoliyat yuritgan muayyan turlari (kasanachilik, hunarmandlik, oilaviy tadbirkorlik) qonuniylashtiriladi, ixtiyoriy ish bilan band bo'lmaslik huquqi rasmiy e'tirof qilinadi. Mehnat bozorining huquqiy va institusional infratuzilmasi yaratiladi.

Yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga kechayotgan barqaror iqtisodiy o'sish an'anasi O'zbekiston aholisining bandligi o'sishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratilishi va rivojlanishini ta'minlab beradi.

So'nggi yillarda kambag'allik va kambag'allikni qisqartirish masalalari geosiyosiy vaziyatga bevosita bog'liqligini isbotlamoqda. Dunyoda ro'y bergan iqtisodiy inqirozlar ta'siri har bir mamlakat iqtisodiyotiga, shu o'rinda, mehnat bozori holatiga ham bevosita ta'sir etmoqda.



1-rasm. 2020-2023-yillarda kambag'allik darajasi va undan chiqqanlar

Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki kambag'allik darajasi – 2020-yildan 2023-yilgacha har yili o'rtacha 3% kamayib borgan. kambag'allikdan chiqqanlar soni – Qishloq joylarda 1,2 million, shaharlarda esa 400 ming aholi kambag'allikdan chiqqan. Demak aytish mumkinki, kambag'al qatlamning katta qismi qishloq joylarda yashaydi. Jahon banki ekspertlari o'rganishlar asnosida mamlakatimizda 2021-2023-yillarda qishloq joylarida 1,2 million aholi (shaharlarda 400 ming kishi) kambag'allikdan chiqarilganini qayd etdi. 2020-yildan buyon 3 milliondan 5 million so'mgacha oylik oladigan ishchilar ikki barobar, 5 milliondan 7 million so'mgacha oluvchilar uch barobar oshdi. Kambag'allik darajasi yiliga o'rtacha 3 foizga kamayib bormoqda<sup>3</sup>.

Bunday vaziyatda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitiga mos ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarini joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ish bilan bandlikning moslashuvchan, egiluvchan shakllarini kengaytirish ish bilan bandlik muammosini yanada yumshatish, aholining ijtimoiy-himoyaga muhtoj qatlamlarini ish o'rinlari bilan ta'minlash, ularga daromad manbaini yaratish va malakasini oshirib borishga imkoniyat yaratadi. Iqtisodiy subyektlar uchun esa, ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarini tashkil etish va ularga xizmat ko'rsatish, korxona xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

3 <https://yuz.uz/uz/news/kambag'allikdan-farovonlik-sari>



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kambag'allikni qisqartirish har bir davlat uchun ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning muhim omilidir. O'zbekiston tajribasida 2020–2023-yillar davomida kambag'allikni kamaytirish borasida muhim natijalarga erishilgan:

Qishloq joylarida asosiy yutuqlar: 1,2 million aholi kambag'allikdan chiqarildi, bu aholi bandligi, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, hamda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali amalga oshdi.

Shahar hududlarida ham ijobiy siljishlar: 400 ming kishi kambag'allikdan chiqdi, bu sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi ish o'rinlarining ko'payishi bilan bog'liq.

Daromadlar oshmoqda: 3–5 million so'm va 5–7 million so'm oylik oluvchi ishchilar soni 2–3 barobarga oshgan, bu esa kambag'allik chegarasidan chiqayotgan qatlamlar sonining ko'payganidan dalolat beradi.

Yillik kamayish sur'ati: Kambag'allik darajasi yiliga o'rtacha 3% ga qisqarmoqda, bu hukumatning ijtimoiy siyosati, inson kapitaliga investitsiyalar va bandlik dasturlari samarali ishlayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, kambag'allikni qisqartirishda tizimli yondashuv, aholining ehtiyojlariga moslashtirilgan siyosat, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy himoya va zamonaviy ta'lim muhim omillar sifatida o'z tasdig'ini topmoqda. Ushbu yondashuvlar davom ettirilsa, O'zbekiston yaqin yillarda kambag'allik darajasini yanada sezilarli darajada kamaytirishga erishishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 04.10.2024-yildagi PQ-347-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7131782>
4. Yoxan Bastiansen, Tom De Herdt va Ben D'Exelle "Poverty reduction as a local institutional process" World Development Volume 33, Issue 6, June 2005, Pages 979-993 <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2004.09.019>
5. Neeta Baporikar "Cooperative Model as Organizational Mechanism for Poverty Reduction and Economic Development" International Journal of Applied Management Theory and Research. 2021 Pages: 22 <https://www.igi-global.com/article/cooperative-model-as-organizational-mechanism-for-poverty-reduction-and-economic-development/279655>
6. To'xliyev N., O'zbekiston iqtisodiyoti. - T.: O'qituvchi, 1994 va 1998.
7. Mirzayev J. K., Pardayev M. K. Ekonomika sfer uslug //Rukovodstvo.-T.:«EKONOMIKA-FINANS. – 2014.
8. Mirzayev Q.D., Sultonov Sh.A. va boshqalar Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. Darslik. Samarqand. SamISI, 2022. –251 b.
9. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi 2023 yil ma'lumotlari.
10. Mirzaev, K., & Janzakov, B. (2020). The determinants of international tourism (in the example of CIS countries). European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 2020.
11. Djanzakovich, M. K., & Ogli, J. B. K. (2022). The analysis of impact of factors influencing leadership abilities. 49(09).
12. Mirzaev K, Janzakov B. The ways of ensuring competitiveness in tourism. LAP LAMBERT Academic Publishing; 2020.
13. Mirzayev Q.J., Janzakov B.K. Innovasion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T.: Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2020.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---